# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024




№ 7

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 348 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi,** Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta o'qituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People’s Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari ....................16
**Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna**

Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari ....................26
**Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li**

Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili ....................32
**Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li**

Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili ....................37
**Turgunov Odilbek Maripovich**

Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi ....................41
**I. Axmedov**

Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari....................46
**Xusanov Murodjon Sunnatullayevich**

Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi ....................54
**Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li**

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish ....................59
**Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich**

O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni ....................65
**Baymanova Mavlyuda Djurayevna**

The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan ....................70
**Alimov Damirjon Odilovich**

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni....................76
**Jusupova Anjim Tansiqbaevna**

Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce ....................82
**Sohibjamol Abirkulova**

Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish ....................87
**Ustadjalilova Xurshida Aliyevna**

Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari....................92
**Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi....................97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli....................104
**J. J. Yaxshilikov**

Сравнительный анализ состояния сферу услуг в регионах Андижанской области ....................109
**Мусабоев Рустам Алижонович**

Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida....................114
**Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich**

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomilashtirish yo'llari....................118
**Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы ........ 122
**Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зохид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёровна**

Investment Management is an Important Factor of Economic Development ........ 127
**Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon**

O‘zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari ........ 130
**Rustamov Jasurbek Ravshanbek o‘g‘li**

Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish ........ 136
**Toyirov Yunus Alamovich**

Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo‘lgan yondashuvlarning shakllanishi ........ 143
**Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich**

Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash ........ 148
**Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o‘g‘li**

Budjet tashkilotlarida pul mablag‘lari nazorat qilishni rivojlantirish yo‘llari ........ 152
**Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna**

QQS ma’murchiligining yevropa tajribasi ........ 157
**Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich**

O‘zbekistonda soliq yukiga ta’sir etuvchi omillar tahlili ........ 162
**Nasimov Ravshanjon Azimovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma’lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari ........ 170
**Ashurov Azizbek Ergash o‘g‘li, Janzakov Bekzot**

Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level ........ 175
**Khudayorova Munira Omonboy kizi**

Soliq ma’murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari ........ 182
**Muxtorov Zokir Sayfulla o‘g‘li, Karimov Ilhom Anorboy o‘g‘li, Homidov Asrorbek Tohirjon o‘g‘li, Axmedova Shoxista G’ayrat qizi**

Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ........ 187
**Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna**

Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 191
**Razzoqov Bexzod Gofurovich**

Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment ........ 196
**Turg‘unov Jasurbek Alimardon o‘g‘li**

Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo‘yicha tasniflashni kengaytirish ........ 202
**Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich**

Iqlim o‘zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirining ilmiy-nazariy tahlili ........ 208
**Ashrafjon Elov**

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati ........ 214
**Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o‘g‘li, Shodmonqulov Temurbek Ulug‘bek o‘g‘li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich**

Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida ........ 218
**Umarov Davron Shavkatovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari ........ 223
**Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o‘g‘li**

Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo‘nalishlari ........ 227
**Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich**

Experience of foreign countries in youth labor market research ........ 231
**Asqarova Muhabbat Ibraximovna**

Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash ........ 235
**Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi**

O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili ........ 241
**Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich**

Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari ........ 247
**Yuldashev Iskandar Bahromovich**

Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран........ 253
**Буранова Лола Вахобовна**

Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobini takomillashtirish........ 263
**Abdurahmanov Otabek Patidinovich**

"To'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'lidagi muammolar va yechimlar" ........ 270
**Otaxanova Umida Olim qizi**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari........ 275
**Sayfulina Alfira Feratovna**

Oliy va xususiy ta'lim muassasalarida ta'lim menejmentini qo'llash hamda alohida mexanizmlarining tahlili........ 281
**Teshaev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Narzullayeva Gulchehra Salimovna**

Jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat-xususiy sheriklik asosida boshqarishning nazariy asoslari ........ 287
**Yuldoshev Ulug'bek Asqar o'g'li**

Asosiy vositalarga oid BHXS va MHXSlar maqsadi va amaliyotda qo'llanilishi........ 293
**Nematova Dilnoza Azamatovna**

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari va omillari ........ 297
**S.M.Xolxo'jayev**

The implementation of eco-tourism in supporting the optimality of tourism sector (case study in Indonesia and Uzbekistan) ........ 302
**Khalimova Mohirabonu, Alfira Sofia, Diana Igorevna Stepanova**

# MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA OMILLARI

**S.M.Xolxo‘jayev**
tadqiqotchi

Annotatsiya: Jahon amaliyotida iqtisodiyotni umumiy o‘lchashning bir necha usullaridan foydalaniladi. Bular qatoriga aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot, iqtisodiy o‘sishning dinamik holati, makroqtisodiy barqarorlik va shular jumlasidandir. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish har qaysi milliy iqtisodiyotda bosh masalalardan biri sifatida belgilanadi. Makroiqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichi har qaysi davlatning iqtisodiy siyosatining samaradorligini ko‘rsatadi. Ammo, uni ta’minlashning omillarini strategik va taktik jihatdan baholab, ularning yo‘nalishlarini belgilash katta ahamiyatga egadir. Mazkur maqolada makroiqtisodiy barqarorlik va unga erishishning ayrim omillarining tahlili va buni O‘zbekiston iqtisodiyotida ta’minlashning ayrim yo‘nalishlari tahlil qilinadi, mavjud muammolarning yechimlari bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

Kalit so’zlar: iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiyotni tartiblash, makroiqtisodiy siyosat, davlatning moliyaviy siyosati, iqtisodiy indikatorlar, iqtisodiy muvozanat, barqarorlik, iqtisodiy omillar.

Abstract: In world practice, several methods of general measurement of the economy are used. These include GDP per capita, dynamic state of economic growth, macroeconomic stability, and so on. Achieving macroeconomic stability is defined as one of the main tasks of any national economy. The indicator of macroeconomic stability shows the effectiveness of the economic policy of any country. However, strategic and tactical assessment of the factors of its provision and determination of their directions are of great importance. This article analyzes macroeconomic stability and some factors of its achievement and some directions of its provision in the economy of Uzbekistan, and highlights issues related to solving existing problems.

Key words: economy, macroeconomics, macroeconomic indicators, macroeconomic stability, economy rating, macroeconomic policy, state financial policy, economic indicators, economic balance, stability, economic factors.

Аннотация: В мировой практике используется несколько методов общего измерения экономики. К ним относятся ВВП на душу населения, динамичное состояние экономического роста, макроэкономическая стабильность и так далее. Достижение макроэкономической стабильности определяется как одна из главных задач любой национальной экономики. Показатель макроэкономической стабильности показывает эффективность экономической политики любой страны. Однако большое значение имеет стратегически и тактическая оценка факторов ее обеспечения и определение их направлений. В данной статье анализируются макроэкономическая стабильность и некоторые факторы ее достижения и некоторые направления ее обеспечения в экономике Узбекистана, освещаются вопросы, связанные с решением существующих проблем.

Ключевые слова: экономика, макроэкономика, макроэкономические показатели, макроэкономическая стабильность, рейтинг экономики, макроэкономическая политика, финансовая политика государства, экономические показатели, экономический баланс, стабильность, экономические факторы.

## KIRISH

Davlatning iqtisodiy siyosatini makro va mikroiqtisodiy jihatdan baholab borish, uning darajasidan kelib chiqib, strategik va taktik iqtisodiy siyosat yo‘nalishlarini belgilab olishda iqtisodiy indiktorlardan foydalanish ham nazariy ham amaliy ahamiyatga egadir. Bunday o‘lchashda odatda makroqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bular jumlasiga, yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, inflyatsiya darajasi, to‘lov balansi, budjet taqchilligi, ishsizlik darajasi, valyuta kursi va shu kabi muhim iqtisodiy indikatorlar mavjudki, ular milliy iqtisodiyotning umumiy holatini tavsiflab beradi.

Xalqaro moliya institutlari tomonidan bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha minimal chegaralar tavsiya etilganki, bu minimal chegaralarni ta’minlash hali iqtisodiyotning o‘sish darajasini tavsiflamasada, ammo, barqarorlikni ta’minlashga qilinayotgan chora-tadbirlarning mazmunini o‘zida ifoda etadi. Ular orasida shunday ko‘rsatkchilar mavjudki, ularning nafaqat minimal chegarasi ta’minlash, qolaversa, ularning dinamik o‘sishga erishish mamlakatda bosh iqtisodiy masalalardan biri qilib belgilanadi.

Bular jumlasiga iqtisodiy o‘sish, to‘la bandlik, ichki narxlarning barqarorligi, milliy valyutaning barqarorligi, barqaror to‘lov balansi, baquvvat davlat budjeti, mamlakat aholisi orasida daromadlarning odil taqsimlanish darajasi va shu kabilar borki, ular umumlashgan holda makroiqtisodiy barqarorlik holatni ifodalaydi. Biroq, bu

ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik o'sishni ta'minlash davlatning ilmiy asosga ega strategik iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi. Bunga esa bir qator omillar ta'sir qiladiki, bu omillarning har birini alohida tadqiq etish, alohida ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Biz quyida uning ayrim jihatlarini makroiqtisodiy jihatdan yondashgan holda tadqiq etishga harakat qilamiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari va real iqtisodiyotni uni ta'minlashning ilmiy muammolari bir qator ilmiy tadqiqotlarning obyekti sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Bular jumlasiga klassik soliq nazariyachilari A.Smit, D.Rikardo, U.Petti, Dj.S.Mill, F.Kene kabilarning ilmiy nazariyalaridan tortib zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning vakillari M.Keyns Dj., P.Samuelson, M.Fridman, I.Fisher, Dj. Mill kabilarning ilmiy tadqiqotlari iqtisodiyotni tartiblashda turli xil iqtisodiy instrumentlardan foydalanish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim masalalariga qaratilgandir.

Jumladan, K.R.Makkonnell, S.L.Bryu i Sh.M.Flinnlar xalqaro va milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning umumiy tamoyillari va yo'nalishlari ko'rsatib, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda ularni qo'llashning umumiy xususiyatlarini ochib bergan bo'lsa[1], M.Byukenen iqtisodiy tanazzullar sharoitida makroiqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlarni ta'minlashning iqtisodiy omillari haqida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan[2], A.Grinspen dunyo moliyaviy tizimlarining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tadqiq qilgan[3], Y.Slutskiy esa, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda iqtisodiy sikllarning ahamiyatini ko'rsatib bergan[4], Blanchard, O. J., Cerutti, E. M., Summers, L., & Obstfeld, M. kabi olimlar esa, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlatning monetar siyosati va inflyatsiyani jilovlash muammolarini tadqiq qilgan[5], bunday tadqiqotlar aynan B.S.Bernanke tomonidan tadqiqotlarda ham uchraydi[6].

Bundan tashqari moliyaviy instrumentlar orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning konseptual masalalari bilan bog'liq tadqiqotlar B.A.Rayzberg, D.G.Chernik., A.Pezenti, Yu.Yu.Petrunin, M.I.Panov kabilar olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Albatta, bu muammo mahalliy olimlarimizning ilmiy tadqiqotlari doirasida ham chuqur tahlil qilib kelinmoqda. Masalan, B.B.Berkinova, F.X. Mamatovalar milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalarining ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib bergan bo'lsa[7], X.P.Abulqosimov davlatning makroiqtisodiy siyosati qanday bo'lish kerak masalani tadqiqot sifatida o'rgangan va muhim tavsiyalarni bergan[8], N.M.Maxmudov, A.H.Hakimovlar esa, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bu iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti sifatida qaraydi va shu yo'nalishdagi muhim iqtisodiy siyosatning yo'nalishlarini ko'rsatib bergan[9], shuningdek, tadqiqotchi X.Ulashevning ilmiy tadqiqotlari aynan O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning konseptual masalalariga bag'ishlangandir[10].

Ta'kidlash lozimki, makroiqtisodiy muammolar klassik va neoklassik nazariyalarning doimiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilib, tadqiq etib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston milliy iqtisodiyotida ham bu masala bilan bog'liq muammolarining turli yo'nalishlari bo'yicha konseptual tadqiqotlar olib borilgan, ammo, uni ta'minlashning omillari juda ko'p bo'lib, ularning har birining ta'sirini baholash uchun alohida ilmiy tadqiqotlar talab qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Makroiqtisodiy barqarorlik va uni ta'minlashning ustuvor masalalariga oid tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan ham foydalaniladi. Makroiqtisodiy barqarorlikning mohiyatini ochib berishda deduksion yoki induksion usullardan foydalanilgan bo'lsa, unga ta'sir

1 К.Р. Макконнелл, С.Л. Брю и Ш.М.Флинн. Принципы, проблемы и политика, Economics: Principles,problems and policies / C. R. McConnell, S. L. Brue.– New York, 1990 : [пер. с англ.] / К. Р. Макконнелл, С. Л. Брю.– М. : Республика, 1992.– Т. 1.– С. 12−14.– 399 с.
2 М.Бьюкенен (2014). Прогноз. Как, наблюдая за погодой, научиться предсказывать экономические кризисы. М.: Азбука Бизнес. 320 с.
3 Гринспен, А. (2008). Эпоха потрясений: Проблемы и перспективы мировой финансовой системы. М.: Альпина Бизнес Букс. 496 с.
4 Слуцкий, Е. (2011) Сложение случайных причин как источник циклических процессов. Избранные труды Кондратьевского Конъюнктурного института. М.: "Экономика". С. 111–145.
5 Blanchard, O. J., Cerutti, E. M., Summers, L., & Obstfeld, M. (2015). Inflation and Activity-Two Explorations and their Monetary Policy Implications. IMF Working Papers, 2015(230).
6 Bernanke, B.S. (2020). The New Tools of Monetary Policy. American Economic Review, 110 (4), 943–83. https://doi.org.
7 Беркинова Б.Б., Маматова Ф.Х. Макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш йўллари. ТДИУ, 2011.
8 Х.П.Абулқосимов ва бошқалар. Давлатнинг макроиқтисодий сиёсати. Академия, 2007 й.
9 Махмудов Н.М., Ҳакимов А.Ҳ. Макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш – барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим шартидир. // Иқтисодиёт ва таълим, 2017 й. 2-сон. 7-11-бетлар.
10 Улашев Х. (2024). Макро иқтисодий барқарорликнинг мамлакат миллий иқтисодиёти ривожидаги ўрни. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(2), 10–14. Retrieved from https://cedr.tsue.uz.

etuvchi omillarni tahlil qilishda guruhlash, sintez va tahlil usullardan samarali foydalanildi. Bundan tashqari, statistik tahlillarga asoslanib, iqtisodiy-soliq ko'rsatkichlarining dinamik o'zgarishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ko'p qo'llanilib kelinadigan tadqiqot usullaridan, jumladan, mantiqiy va taqqoslama, abstrakt-mantiqiy fikrlash usullari keng foydalaniladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida O'zbekiston iqtisodiyotida bosh makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan asosiy maqsad sifatida – iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni – 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish masalasi belgilab olindi. Albatta bunday iqtisodiy jihatdan ulug'vor vazifaning ta'minlanishi esa, makroiqtisodiy taktik yo'nalishlarni to'g'ri belgilab olishni taqozo etadi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim taktik omillari[11.]

Ushbu rasmda keltirilganlardan tashqari bosh maqsadga erishish uchun yana kichik taktik yo'nalishlar ham belgilab olindiki, ularning har birini ijrosini ta'minlash milliy iqtisodiyot darajasida aniq tahlillarga asoslangan tarmoq va makroiqtisodiy vazifalar belgilanishini taqozo etadi. Birgina sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish birinchidan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va milliy bozorda reinvestitsiya jarayonlarini kuchaytirish, ularga asosiy kapitalga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmini kamida 3 martaga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni tezlashtirish, ichki imkoniyatlarni ishga solgan holda yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar hajmini oshirish va shu kabi choralarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda tashqi iqtisodiy va siyosiy vaziyatning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri va uni yumshatish maqsadida biznesga berilayotgan imtiyoz va preferensiyalarga qaramasdan, O'zbekistonning asosiy eksport tovarlari hisoblanadigan oltin, mis va tabiiy gaz narxlarining dunyo bozorida barqaror qolishiga va keyingi yillarda soliq ma'murchiligi kuchaytirilishi natijasida makroiqtisodiy barqarorlikning fiskal ta'sirining ahamiyati oshib bordi.

Qayd etish joizki, milliy iqtisodiyotimizda makroiqtisodiy baqarorlikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qator farmon va qarorlar qabul qilindiki, natijada global iqtisodiy noaniq-

11 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони асосида муаллиф томонидан тузилган.

liklar oqibatida O‘zbekistonning tashqi savdo operatsiyalaridagi uzilishlar, asosiy iste’mol tovarlarining narxlari oshishi bilan mamlakat ichida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf etish hamda aholining to‘lov qobiliyati barqarorligini ta’minlashga erishildi (1-jadval).

1-jadval. Ayrim davlatlar uchun iqtisodiy o‘sish prognozlari[12] (foizda).

| № | Davlatlar | Xalqaro valyuta jamg‘armasi prognozi | | Jahon banki prognozi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 2023-yil | 2024-yil | 2023-yil | 2024-yil |
| 1 | Jaxon iqtisodiyoti | 3,0 | 2,9 | 2,5 | 2,1 |
| 2 | Rossiya | 2,2 | 1,1 | 1,6 | 1,3 |
| 3 | Xitoy | 5,0 | 4,2 | 5,1 | 4,6 |
| 4 | Turkiya | 4,0 | 3,0 | 4,2 | 3,1 |
| 5 | Qozog‘iston | 4,6 | 4,2 | 4,5 | 4,3 |
| 6 | Qirg‘iziston | 3,4 | 4,3 | 3,5 | 4,0 |
| 7 | Tojikiston | 6,5 | 5,0 | 6,5 | 5,0 |
| 8 | Ozarbayjon | 2,5 | 2,5 | 1,5 | 2,4 |
| 9 | Gruziya | 6,2 | 4,8 | 5,9 | 4,8 |

Xalqaro valyuta jamg‘armasining hisob-kitoblari asosida prognozlarga ko‘ra, keyingi yillarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari sekinlashish mumkin, buning asosiy sabab sifatida bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuqori global inflyatsion sharoitda qat’iy monetar siyosatning davom ettirilishi, shuningdek, bir qator mamlakatlarda davlat qarzi yukini qisqartirish maqsadida fiskal konsolidatsiyalashuvni amalga oshirishini keltirgan. Ushbu xalqaro institutning tahliliga ko‘ra, 2023-yilda jahon iqtisodiyoti 3,0 foizdan, 2024-yilda 2,9 foizga, rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti esa mos ravishda 1,5 foizdan, 1,4 foizga sekinlashadi. Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida joriy yildagi 4 foizlik iqtisodiy o‘sish sura’ti saqlanib qolinayotgan bo‘lsada, mamlakatimizning asosiy savdo hamkorlari jumladan, Rossiya iqtisodiyoti 2023-yilda 2,2 foizdan 2024-yilda 1,1 foizga, Xitoy 5,0 foizdan 4,2 foizga, Turkiya iqtisodiyoti 4,0 foizdan 3,0 foizga hamda Qozog‘iston 4,6 foizdan 4,2 foizga sekinlashadi..

Prognozlarga ko‘ra, 2023–2024-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyoti 5,6-5,8 foiz doirasida, 2025–2026-yillarda mos ravishda 6,2 va 6,4 foizgacha o‘sishi kutilmoqda. Bunda, 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulotni 4 ming AQSH dollarga yetkazish bo‘yicha belgilangan maqsadidan kelib chiqib prognoz qilingan. Buning asosi sifatida fikrimizcha, respublikamizda inson kapitalini rivojlantirish, energiya resurslari bozorini isloh qilish, korxonalarni xususiylashtirish va transformatsiya qilishni jadallashtirish, tabiiy resurslardan, xususan suv resurslaridan oqilona foydalanish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sherikligi asosidagi loyihalaridan foydalanishni kengaytirish choralarini amalga oshirishni taqozo etadi. Buning uchun esa, buning uchun keyingi yillarda dunyoda kuzatilayotgan iqtisodiy va siyosiy noaniqliklar qaramasdan O‘zbekistonning barqaror o‘sishini ta’minlash talab etiladi.

Biroq, fikrimizcha, bunday makroiqtisodiy barqarorlikka erishishada bir qator salbiy ta’sir qiluvchi omillarning ta’sirini e’tiborga olgan holda makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish lozim bo‘ladi. Ya’ni, asosiy hamkor mamlakatlar iqtisodiy o‘sishining sekinlashish natijasida tashqi talabning qisqarishi mumkin, asosiy eksport tovarlar narxining yuqori o‘zgaruvchanligining saqlanib qolishini e’tiborga olish lozim bo‘ladi, yirik mamlakatlar markaziy banklari tomonidan foiz stavkalarning oshirishi natijasida xalqaro moliya bozorida qarz mablag‘larning qimmatlashuvining davom etishi mumkin, global geosiyosiy vaziyatning murakkablashishi sharoitida o‘rta muddatli istiqbolda iqtisodiy rivojlanish trendidagi yuqori noaniqliklarning saqlanib qolishi va boshqalar salbiy oqibatlarga olib kelishi va makroiqtisodiy barqarorlikni susaytirishi mumkin.

O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va uning o‘sish sur’atlarini oshirish maqsadida 2024-yilda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6 foizga, qurilish ishlari – 6,3 foiz, qishloq xo‘jaligi – 4 foizga va bozor xizmatlari – 14,9 foizga o‘sishni ta’minlash talab etiladi, bu esa, birinchilar sifatida makroiqtisodiy va fiskal buferlar barqarorligini ta’minlash uchun 2024-yilda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini 6,1 foizga, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni 36 foizga va oltinsiz eksport hajmini 15 foizga oshirishni taqozo etadi va iqtisodiy o‘sish tarkibiy islohotlarni izchil davom ettirilishi, shuningdek, fiskal va monetar siyosatning o‘zaro muvozanatli yuritilish hamda makro-fiskal tavakkalchiliklarni ta’sirini kamaytirish talab etadi.

12 Халқаро валюта жамғармаси ва Жаҳон банкининг ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, tashqi bozordagi noaniqliklar darajasi oshib borayotgan hamda buning natijasida milliy iqtisodiyotimizdagi ichki omillardagi prognozlarni baholash qiyinlashgan sharoitda respublikamizda o‘rta muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun quyidagi makroiqtisodiy siyosatning taktik yo‘nalishlarini amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

Birinchidan, iqtisodiyot tarmoq va sohalarini barqaror rivojlanishi uchun zaruriy sharoit yaratishni tizimligini ta’minlash;

Ikkinchidan, o‘rta muddatli istiqbolda sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarish hajmini o‘rtacha 5-6 foizga o‘sishini ta’minlash va yirik loyihalarni o‘z vaqtida ishga tushirishga erishib borish;

Uchinchidan, xizmatlar bozorini rivojlantirishda o‘rtacha o‘sishni 12-14 foizga o‘sishga erishish;

To‘rtinchidan, qishloq va suv xo‘jaligi tarmog‘ida unumdorlikni oshirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirish va sohadagi muammolarni bartaraf etish choralarini amalga oshirish orqali, hududlarning salohiyatini inobatga olgan holda qishloq xo‘jaligi o‘sish sur’atini o‘rtacha 4-5 foizga o‘sishini ta’minlash;

Beshinchidan, bank tizimida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va ularning faoliyatiga davlat aralashuvini cheklashni oshirib borish;

Oltinchidan, budjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan jahon amaliyotidagi o‘rtacha ko‘rsatkich darajasida (3-4 foiz)dan oshirmaslik bo‘yicha budjet intizomini kuchaytirish lozim bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикасининг Бюджет кодекси. Ўзбекистон Республикаси 2013 йил 26 декабрдаги ЎРҚ360 сон Қонуни билан тасдиқланган. lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 31 майдаги “Имтиёзлар ва преференциялар бериш тартибини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3756-сонли қарори. lex.uz.
4. Ўзбекистон Республикасининг “2022 йил учун Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети тўғрисида”ги. Қонуни лойиҳаси ва 2022 йил учун Бюджетнома бўйича Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг ХУЛОСАСИ.–Т.: – 2021 йил. 2. МУНДАРИЖА I. Кириш. 4 II. 2022 йил учун асосий макроиқтисодий кўрсаткичлар прогнози. admin.openbudget.uz.
5. К.Р. Макконнелл, С.Л. Брю и Ш.М.Флинн. Принципы, проблемы и политика, Economics: Principles,problems and policies / C. R. McConnell, S. L. Brue. — New York, 1990 : [пер. с англ.] / К. Р. Макконнелл, С. Л. Брю. — М. : Республика, 1992.– Т. 1.– С. 12−14.– 399 с.
6. М.Бьюкенен (2014). Прогноз. Как, наблюдая за погодой, научиться предсказывать экономические кризисы.– М.: Азбука Бизнес. 320 с.
7. Гринспен, А. (2008). Эпоха потрясений: Проблемы и перспективы мировой финансовой системы. М.: Альпина Бизнес Букс. 496 с.
8. Слуцкий, Е. (2011) Сложение случайных причин как источник циклических процессов. Избранные труды Кондратьевского Конъюнктурного института. М.: “Экономика”. С. 111–145.
9. Blanchard, O. J., Cerutti, E. M., Summers, L., & Obstfeld, M. (2015). Inflation and Activity-Two Explorations and their Monetary Policy Implications. IMF Working Papers, 2015(230).
10. Bernanke, B.S. (2020). The New Tools of Monetary Policy. American Economic Review, 110 (4), 943–83. https://doi.org.
11. Беркинова Б.Б., Маматова Ф.Х. Макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш йўллари. ТДИУ, 2011.
12. Х.П.Абулқосимов ва бошқалар. Давлатнинг макроиқтисодий сиёсати. Академия, 2007 йил.
13. Махмудов Н.М., Ҳакимов А.Ҳ. Макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш – барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим шартидир. // Иқтисодиёт ва таълим, 2017 й. 2-сон. 7-11-бетлар.
14. Улашев Х. (2024). Макро иқтисодий барқарорликнинг мамлакат миллий иқтисодиёти ривожидаги ўрни. Iqtisodiyot Va ta’lim, 25(2), 10– Retrieved from https://cedr.tsue.uz..
15. http://www.Soloq.uz-(Давлат солиқ қўмитаси сайти).
16. http://www.mf.uz- (Молия вазирлиги сайти).
17. http://www.stat.uz-(Давлат статистика қўмитаси сайти).
18. http://www.lex.uz – (Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси).

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.